O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab
ta’limi vazirligi

ISSN: 2992-9008
UDK: 37

TA’LIM VA TARAQQIYOT

Ilmiy-uslubiy jurnali

2026-YIL 5-SON

www.journal.namspi.uz

Bosh muharrir: *Namangan davlat pedagogika instituti rektori B.E.Xusanov*
Mas'ul muharrir: *Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor M.R.Qodirxonov*
Mas'ul muharrir o'rinbosari0: *Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedogogik kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i J.A.Yuldashev*

T A H R I R H A Y ' A T I

Aniq va tabiiy fanlar: *k.f.d., prof. Sh.Abdullayev, f-m.f.d., dots. R.Xakimov, k.f.d., prof. N.Vohidova, k.f.d., dots. M.Qodirxonov, b.f.d., dots. A.Batashov, f-m.f.n., dots., T.Abdullayev, p.f.n., dots. M.Eshnazarova, p.f.n., dots. G'.Nafasov, p.f.n., dots. M.Boltayeva.*
Texnika fanlari: *t.f.d., prof. A.Umarov, t.f.d., prof. A.Qayumov, PhD, dots. Sh.Xudoyqulov, PhD, dots. Abdunazarov.*
Ijtimoiy-gumanitar fanlar: *s.f.d., prof. T.Fayzullayev, tar.f.d, prof. A.Rasulov. f.f.d., prof. M.Ismoilov, i.f.d., dots. N.Sotivoldiyev, t.f.n., dots. A.Isoqboyev, f.f.n., dots. O.Mamatov, t.f.n., dots. Z.Haydarov, PhD. J.Yuldashev, PhD. A.Abdullayev.*
Pedagogika fanlari: *p.f.d., prof. B.Xodjayev, p.f.d., prof. X.Najmiddinova, p.f.d., prof. T.Ismoilov, p.f.d., prof. S.Abdullayev. p.f.d., prof., M.Y.Sobirova, p.f.d., prof., R.Zamilova, p.f.d., prof. Sh.Xujamberdiyeva, p.f.d.,dost. M.Asqarova, PhD S.Jamoldinova, PhD, dots. M.Asranboyeva.*
Filologiya fanlari: *fil.f.d., prof. N.Uluqov, fil.f.d., prof. H.Usmanova, f.f.d., dots. X.Shokirova, p.f.n., dots. S.Misirov, p.f.n., dots. Sh.Ubaydullayev, PhD.,dots. P.Lutfullayev, PhD., dots. M.Yakubbayev.*

Texnik muharrir: R.Tursunov

Tahririyat manzili: Namangan shahri, Uychi ko'chasi, 316-uy.
Pochta indeksi: 160136, ***Faks:*** (0369) 227-27-21,
Email: Info@namspi.uz

"Ta'lim va taraqqiyot" ilmiy-uslubiy jurnali elektron to'plam sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi ***Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi (AOKA)ning 2022-yil 25-oktabrdagi № 045044 raqamli guvohnomasi*** *asosida chop etiladi. Jurnal* ***Oliy Attestatsiya komissiyasining 2024-yil 30-noyabrdagi (№ 364/5) yig'ilishi qaroriga asosan pedagogika fanlari bo'yicha*** *falsafa fanlari doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiya ishlari yuzasidan asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan. UDK: 37, Xalqaro standartlashtirish raqami (ISSN): 2992-9008.*

Maqolalarning ilmiy saviyasi va keltirilgan ma'lumotlar uchun mualliflar javobgar hisoblanadi.

NAMANGAN DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI 2026



13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

TALABALARNING IJTIMOIY-MADANIY KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRUVCHI TIZIMI

Maxmudova Fotima Shamshidinovna,
p.f.f.d (PhD), dotsent v.v.b.
"Boshlang'ich ta'lim nazariyasi va metodikasi" kafedrasi
Toshkent amaliy fanlar universiteti
https://orcid.org/0009-0000-5575-1192

Annotatsiya: *Maqolada oliy ta'lim muassasalari talabalarining ijtimoiy-madaniy kompetensiyasini rivojlantirish tizimi yoritilgan. "Ijtimoiy-madaniy kompetensiya" tushunchasining mazmuni va tarkibiy qismlari, ya'ni kognitiv, motivatsion-qadriyatli, kommunikativ va faoliyatli komponentlari tahlil qilingan. Uni rivojlantiruvchi tizimning maqsadi, tamoyillari, pedagogik shart-sharoitlari, shakl, metod va vositalari asoslab berilgan. Ta'lim jarayonini auditoriyadan tashqari va madaniy-ma'rifiy faoliyat bilan uyg'unlashtirish, interfaol va loyihaviy metodlar, raqamli texnologiyalar hamda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga tayanish tizimning muhim jihatlari sifatida ko'rsatilgan. Ijtimoiy-madaniy kompetensiyaning shakllanganlik darajasini baholash mezonlari va ko'rsatkichlari taklif etilgan, tizimni amaliyotga joriy etish bo'yicha tavsiyalar berilgan.*

Kalit so'zlar: *ijtimoiy-madaniy kompetensiya, talaba, oliy ta'lim, pedagogik tizim, kompetensiyaviy yondashuv, madaniyatlararo muloqot, qadriyatlar, pedagogik shart-sharoit, interfaol metodlar, baholash mezonlari.*

СИСТЕМА РАЗВИТИЯ СОЦИОКУЛЬТУРНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ УЧАЩИХСЯ

Аннотация: *В статье рассматривается система развития социально-культурной компетенции студентов высших учебных заведений. Анализируются содержание понятия «социально-культурная компетенция» и его структурные компоненты: когнитивный, мотивационно-ценностный, коммуникативный и деятельностный. Обосновываются цель, принципы, педагогические условия, формы, методы и средства развивающей системы. В качестве важных аспектов системы выделены интеграция учебного процесса с внеаудиторной и культурно-просветительской деятельностью, применение интерактивных и проектных методов, цифровых технологий, а также опора на национальные и общечеловеческие ценности. Предложены критерии и показатели оценки уровня сформированности социально-культурной компетенции, даны рекомендации по внедрению системы в практику.*

Ключевые слова: *социально-культурная компетенция, студент, высшее образование, педагогическая система, компетентностный подход, межкультурная коммуникация, ценности, педагогические условия, интерактивные методы, критерии оценки.*

A SYSTEM FOR DEVELOPING STUDENTS' SOCIOCULTURAL COMPETENCE

Abstract: *This article examines a system for developing the socio-cultural competence of university students. It analyzes what the concept of "socio-cultural competence" means and its four structural components: cognitive, motivational and value-based, communicative, and activity-based. The article sets out the goal, principles, pedagogical conditions, forms, methods and tools of the system. It identifies several features as central to the system: linking classroom learning with extracurricular and cultural-educational activities, using interactive and project-based methods and digital technologies, and building on national and universal human values. The article proposes criteria and indicators for assessing how well socio-cultural competence has developed and gives recommendations for putting the system into practice.*

Key words: *socio-cultural competence, student, higher education, pedagogical system, competence-based approach, intercultural communication, values, pedagogical conditions, interactive methods, assessment criteria.*

KIRISH

Talabalarning ijtimoiy-madaniy kompetensiyalarini rivojlantirish mazmuni – bu ularni ijtimoiy va madaniy jihatdan yetuk, faol, fuqarolik pozitsiyasiga ega, madaniyatlararo muloqotga tayyor shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qiluvchi bilim, koʻnikma, qadriyat va faoliyat turlari majmuasidir. Talabalarning ijtimoiy-madaniy kompetensiyalarini rivojlantirish mazmunini quyidagilarda koʻramiz:

1. Ijtimoiy hayotga oid bilimlar. Talabalarga jamiyatning asosiy tuzilmalari, qadriyatlari va ijtimoiy munosabatlar haqida tushunchalar beriladi. Mazkur bilimlar oila, davlat, jamiyat, fuqarolik institutlari, Oʻzbekiston Konstitutsiyasi, fuqarolik burch va huquqlari, demokratik jamiyatda yashash madaniyati, talaba, doʻst, fuqarolik, rahbarlik, aʼzo sifatida ijtimoiy rollar haqida boʻladi.

2. Madaniyat va madaniy qadriyatlar bilan tanishtirish koʻnikmalari. Talabalarni oʻz milliy madaniyati va boshqa xalqlarning madaniyatiga nisbatan hurmat ruhida tarbiyalash hisoblanadi. Milliy urf-odatlar, qadriyatlar, bayramlar, sanʼat va tarix, madaniy xilma-xillik, global madaniyatlararo jarayonlar, madaniy meros obyektlari, muqaddas qadamjolar, sanʼat, adabiyot, teatr, musiqa bilan tanishtiriladi.

3. Kommunikativ koʻnikmalarni rivojlantirish. Jamiyatda toʻgʻri muloqot qilish, boshqalarni tushunish va muomala madaniyati shakllantiriladi. Tarbiya madaniyati, tinglash va soʻzlash koʻnikmalari, konfliktlarni hal qilish va murosaga kelish madaniyati,

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

tolerantlik, empatiya, bag‘rikenglik tamoyillari, guruhda ishlash, fikr bildirish, bahs-munozaralardan foydalaniladi.

4. Fuqarolik va axloqiy tarbiyalanganlik. Talabalarni mas’uliyatli, vatanparvar, axloqiy jihatdan yetuk shaxs etib tarbiyalanadi. Bunda fuqarolik pozitsiyasi shakllantiriladi, vatanparvarlik, milliy g‘urur, ona tiliga hurmat mustahkamlanadi, inson huquqlari, ijtimoiy adolat, halollik, javobgarlik, shaxsiy va jamoaviy axloqiy mezonlar o‘zlashtiriladi.

5. Faol ishtirok va tashabbuskorlikni rivojlantirish. Talabalarni real ijtimoiy-madaniy jarayonlarga jalb qilish orqali ularni tajriba orttirishga yo‘naltiriladi. Ijtimoiy loyihalarda, aksiyalarda qatnashish, talabalar turar joyidagi madaniy hayotda ishtirok, ko‘ngillilik, xayriya, ekologik tadbirlar, yetakchilik va tashabbus ko‘rsatish

6. Refleksiya va o‘z-o‘zini baholash. Talabada o‘zining ijtimoiy-madaniy rivojlanish holatini anglash, tahlil qilish ko‘nikmasini shakllantiriladi. Natijada, o‘z fikr va qadriyatlari baholanadi, o‘z ustida ishlashga tayyorlanadi, o‘zining ijtimoiy faoliyatini tahlil qiladi va rivojlantiriladi[11].

Ijtimoiy-madaniy kompetensiyani rivojlantirish uchun maxsus madaniyatlararo muloqotning kasbiy yo‘naltirilgan vaziyatlari kompleksini yaratish zarur. bo‘yicha oliy kasbiy ta’limning “O‘quv jarayonida faol va interaktiv mashg‘ulotlarni o‘quv jarayonida keng qo‘llashni nazarda tutadigan” kompetensiyaga asoslangan yondashuvni amalga oshirishda maxsus tizim taklif qilindi darsdan tashqari ishlar bilan birgalikda olib borildi (1-rasmga qarang):



1-rasm. Talabalarning ijtimoiy-madaniy kompetensiyasini rivojlantiruvchi tizimi

Talabalarning ijtimoiy-madaniy kompetensiyasini rivojlantiruvchi tizimi orqali ijtimoiy-madaniy kompetensiyaning qanday omillar asosida shakllanishi, qanday yo'nalishlar bilan rivojlanishi va qaysi natijaga olib borishi aniq ko'rinadi.

Pedagogik sharoitlar asos bo'lib, bu bosqichda talaba uchun qulay, ijtimoiy-ma'naviy muhit yaratiladi: faol, interaktiv ta'lim metodlari (munozara, rolli o'yinlar), mustaqil fikrlashga yo'naltirish, o'quvchining shaxsiy tajribasini inobatga olish.

Ta'lim-tarbiya mazmuni – bilim bazasi bo'lib, u bosqichda ijtimoiy-madaniy kompetensiya uchun zarur bilim va qadriyatlar rivojlantiriladi: tarixiy-madaniy bilimlar, fuqarolik va vatanparvarlik tarbiyasi, axloqiy normalar va madaniyatlararo muloqot asoslari.

Faoliyat turlari – amaliy tajriba hisoblanib, talaba bilimni amaliyotda qo'llash orqali o'zlashtiradi: madaniy, ijtimoiy loyihalarda ishtirok, teatr, muzey, ekskursiyalar, milliy bayramlar, ijtimoiy-madaniy tashabbuslarda faol qatnashish.

Tarbiyaviy ishlarni tashkil etishning asosiy tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat: maqsadning aniq mezonlarda ifodalanishi; faoliyat maqsadini amalga oshirishda xizmat qilishi; bolalar tarbiyasidagi faoliyatni o'qituvchi, ota-ona va jamoa bilan hamkorlikda boshqaruvni ta'minlash muhimdir.

Tarbiyaviy ishlarni tashkil qilish va uning salohiyatini oshirish bola qalbida insoniy fazilatlarni singdirish koʻp jihatdan tarbiyachi tarbiyalanuvchilarning ijodiy faoliyatini tashkil etishga bogʻliq. Ular quyidagi omillarni qoʻllash asosida vujudga keladi:

Ilmiy manbalarni tahlil qilish va "Tarbiyaviy ishlar metodikasi" fanini oʻqitish tajribasini oʻrganish jarayonida ma'lum boʻldiki, "Boshlangʻich ta'lim" yoʻnalishida tahsil olayotgan talabalarga shaxsiy oʻquv-tarbiyaviy tajribasini umumlashtirish, ijtimoiy-madaniy va kasbiy kompetensiyalarini innovatsion metodlar va tizimlar orqali rivojlantirish, shuningdek, ularning amaliy faoliyatga tayyorligini oshirishga qaratilgan metodik yondashuvlarni joriy etish zarur[2].

Fanlararo tamoyil talabalarning ijtimoiy-madaniy kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim oʻrin tutadi. Talaba kasbiy tayyorgarlik jarayonida fanlararo integratsiyaga asoslangan bilim va koʻnikmalarga ega boʻlishi, shu jumladan "Tarbiyaviy ishlar metodikasi" fanidan olingan nazariy va amaliy bilimlarni oʻquv jarayonida samarali qoʻllashi zarur. Bu jarayon, bir tomondan, talabalarning tarbiyaviy va ma'naviy jihatdan yetuk shaxs sifatida shakllanishiga xizmat qilsa, ikkinchi tomondan, ularning ijtimoiy-madaniy kompetensiyalarini boyitishga yordam beradi.

Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish tamoyillari. texnologiya bosqichli oʻquv jarayoni: tushunish, ma'noni anglash, amalga oshirishga baholash bosqichlaridan iborat.

Fikrlashning rivojlanish darajasini hisobga olish tamoyili. Ma'lumot bilan ishlashda talaba bilim darajasida aqliy operatsiyalar zanjirini bajarishi kerak. Mashqlar shu jarayonlarga muvofiq amalga oshirilishi kerak.

Mahalliy va xorijiy madaniyatlararo tenglik tamoyili. gi mutaxassislar oʻz ona madaniyati, urf-odatlari va an'analarini tasvirlash uchun «Tarbiyaviy ishlar metodikasi» fanidan foydalanadilar. Masalan, talabalar Berlinni yoki Ostern bayramini tasvirlashda qiyinchiliklarga duch kelmaydilar, lekin Maslenitsa yoki boshqa xalq hunarmandchiligining tavsifi, bu borada ma'lumot va bilim yetishmasligi kasbiy faoliyatida ma'lum qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Tezkorlik elementining tamoyili. talabalarning faoliyati nafaqat turistik mahsulotni rejalashtirish va amalga oshirish bilan bog‘liq. Ko‘pincha bu paydo bo‘ladigan muammoga tezkor javob berishni talab qiladi. Bunday vaziyatlar yaratishda ularning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olish va nutq vazifasini tasvirlash kerak. Kutilmagan muloqotga yetarlicha javob berish, rejalashtirilgan tartibda muvaffaqiyatsizlikka uchrash ehtimolini oldindan bilish, barcha kommunikativ va kasbiy bilim va ko‘nikmalarni darhol faollashtirish va kutilmagan holatlarga maqsadli tayyorgarlik ijtimoiy-madaniy kompetensiyalarini namoyish etadi.

Adabiyotlarda umumiy madaniy kompetensiyalar deganda quyidagi bilim, ko‘nikma va malakalarga, ma’lum qobiliyat va ijtimoiy-madaniy faoliyatga tayyor bo‘lishi kerak bo‘lgan talabaning ijtimoiy va madaniy o‘ziga xosligini tarbiyalash tushuniladi.

Talabalarning ijtimoiy-madaniy kompetensiyalarini rivojlantirish tarbiyaviy, ijtimoiy-madaniy yo‘nalishdagi keng ko‘lamli dars va darsdan tashqari ishlarni nazarda tutadi. Bizning fikrimizcha, ijtimoiy-madaniy kompetensiyalarni rivojlantirish mazmunini ishlab chiqish quyidagilarga bog‘liq: talabalarning hayotdagi ijtimoiy-madaniy faoliyatda o‘zini o‘zi anglash ehtiyojlari, ijtimoiy-madaniy faoliyat yo‘nalishlarining (axborot va muloqot, ma’naviy-axloqiy, qadriyat va semantik, fuqarolik-vatanparvarlik, kasbiy va shaxsiy, ijodiy faoliyat) to‘g‘ri tashkil etilishi, universitetdagi ta’lim jarayonini jamoat tashkilotlari, ijodiy guruhlar va boshqa ijtimoiy institutlar bilan hamkorlik asosida yo‘lga qo‘yilishi, talaba-o‘qituvchi munosabatlarida ijtimoiy-madaniy dialoglarni shakllantirish[4].

Talabalarning ijtimoiy-madaniy kompetensiyalarini rivojlantirish texnologiyasini tatbiq etishga tarbiyaviy, kognitiv, ijtimoiy va ma’naviy-axloqiy loyihalarni tayyorlash va amalga oshirishda talaba faoliyatini quyidagicha aks ettirish mumkin (1-jadvalga qarang).

1-jadval.

Talabalarning ijtimoiy-madaniy kompetensiyalarini rivojlantirishda ijtimoiy-madaniy loyihalar

Treninglar	**Ta'lim faoliyati**	**Musobaqalar**	**Xayriya tadbirlari**
Ota-ona va talabalar o'rtasida hamkorlik bo'yicha trening: "Biz birgamiz"	Auditoriyadan tashqari mashg'ulotlar: "Oila — inson hayotining asosi!"	Rolli kompozitsiya: "Azizlarim va menga yaqin odamlar!"	Xayriya tadbirlari: "Yordam qo'lini cho'zing!"
O'zaro hamkorlikni rivojlantirish: "Odam kim?"	Auditoriyadan tashqari mashg'ulotlar, tadbirlar: "Ko'ngilli kim? Ko'ngillilar harakati nima?"	Video tanlovlar: "Ijtimoiy tarbiyaviy videolar"	Xayriya tadbirlari: "Kichik birodarlarimizga!"
Muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish: "O'z his - tuyg'ularingizga ishonishni o'rganing!"	Auditoriyadan tashqari, tadbirlar: "Odamlar o'rtasidagi o'zaro tushunish. Bunga qanday erishish mumkin?"	Insholar tanlovi: "Men / va jamoadaman (e)"	Xayriya tadbiri: "Men bo'lmasam kim!"
Tolerantlikni rivojlantirish:	Auditoriyadan tadbirlar, mashg'ulotlar:	Taqdimotlar tanlovi:	Xayriya yarmarkasi:

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

"Norozilik harakati yoki ksenofobiya?"	"Bardoshlik nima?"	"O'zbek dunyosi o'zbeklar nigohi bilan"	«Har xil narsalarni sotish»

Amaliyot shuni ko'rsatadiki, ko'plab talabalar ijtimoiy-madaniy tadbirlar amaliyotida o'zlarini muvaffaqiyatli namoyon etishadi va ularda yetarlicha milliy ko'nikmalar shakllanadi. Tarbiya fanini o'qitishda quyidagi innovatsion texnologiyalardan foydalanildi.

"Assesment" metodi ta'lim oluvchilarning bilim darajasini baholash, nazorat qilish, o'zlashtirish ko'rsatkichi va amaliy ko'nikmalarini tekshirishga yo'naltirilgan. Mazkur texnika orqali ta'lim oluvchilarning bilish faoliyati turli yo'nalishlar (test, amaliy ko'nikmalar, muammoli vaziyatlar mashqi, qiyosiy tahlil, simptomlarni aniqlash) bo'yicha tashxis qilinadi va baholanadi[7].

"KWHL" metodi talabalarni yangi axborotlar tizimini qabul qilishi va bilimlarni tizimlashtirishi uchun qo'llaniladi, shuningdek, bu metod Talabalar uchun mavzu bo'yicha qo'yidagi jadvalda berilgan savollarga javob topish mashqi vazifasini belgilaydi. KWHL izohlari quyidagicha:

Know – nimalarni bilaman?

Want – nimani bilishni xohlayman?

How — qanday bilib olsam bo'ladi?

Learn — nimani o'rganib oldim? (2-jadvalga qarang):

2-jadval.

"KWHL" metodi

1. Nimalarni bilaman:	***2. Nimalarni bilishni xohlayman, nimalarni bilishim kerak:***

3. Qanday qilib bilib va topib olaman:	*4. Nimalarni bilib oldim:* -

"W1H" metodi talabalarni yangi axborotlar tizimini qabul qilishi va bilimlarni tizimlashtirishi uchun qo'llaniladi, bu metod talabalar uchun mavzu bo'yicha qo'yidagi jadvalda berilgan oltita savollarga javob topish mashqi vazifasini belgilaydi (3-jadvalga qarang):

3-jadval.

"W1H" metodi

What?	Nima? (ta'rifi, mazmuni, nima uchun ishlatiladi)	
Where?	Qayerda (joylashgan, qayerdan olish mumkin)?	
What kind?	Qanday? (parametrlari, turlari mavjud)	
When?	Qachon? (ishlatiladi)	
Why?	Nima uchun? (ishlatiladi)	
How?	Qanday qilib? (yaratiladi, saqlanadi, to'ldiriladi, tahrirlash mumkin)	

"SWOT-tahlil" metodi mavjud nazariy bilimlar va amaliy tajribalarni tahlil qilish, taqqoslash orqali muammoni hal etish yo'llarni topishga, bilimlarni mustahkamlash, takrorlash, baholashga, mustaqil, tanqidiy fikrlashni, nostandart tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi (2-rasmga qarang):

S – (strength)	• kuchli tomonlari
W – (weakness)	• zaif tomonlar
O – (opportunity)	• imkoniyalari
T – (threat)	• harflar

2-rasm. "SWOT-tahlil" metodi

"VEER" metodi murakkab, ko'ptarmoqli, mumkin qadar, muammoli xarakteridagi mavzularni o'rganishga qaratilgan. Metodning mohiyati shundan iboratki, bunda mavzuning turli tarmoqlari bo'yicha bir xil axborot beriladi va ayni paytda, ularning har biri alohida aspektlarda muhokama etiladi. Masalan, muammo ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik, fazilat va kamchiliklari, foyda va zararlari bo'yicha o'rganiladi. Bu interfaol metod tanqidiy, tahliliy, aniq mantiqiy fikrlashni muvaffaqiyatli rivojlantirishga hamda o'quvchilarning mustaqil g'oyalari, fikrlarini yozma va og'zaki shaklda tizimli bayon etish, himoya qilishga imkoniyat yaratadi. "Veer" metodidan ma'ruza mashg'ulotlarida individual va juftliklardagi ish shaklida, amaliy va seminar mashg'ulotlarida kichik guruhlardagi ish shaklida mavzu yuzasidan bilimlarni mustahkamlash, tahlili qilish va taqqoslash maqsadida foydalanish mumkin[9].

XULOSA

Ijtimoiy-madaniy kompetensiyalarni rivojlantirish modeli zamonaviy ta'lim yondashuvlarida talabalarning o'zaro bog'liq ijtimoiy-madaniy va kognitiv rivojlanish jarayoni sifatida talqin etiladi. Ushbu model "Tarbiyaviy ishlar metodikasi" fanini o'qitishda madaniy qadriyatlarni anglash, turli xalqlarga nisbatan tolerantlikni

rivojlantirish va o‘quv jarayonining ijtimoiy-madaniy yo‘nalganligini ta’minlashga asoslanadi. Ijtimoiy-madaniy kompetensiyani rivojlantirishda talabalarda turli madaniyatlar, an’analar, axloqiy me’yorlar va urf-odatlarning farqlarini tushunish va anglashga qaratilgan alohida mavzularga ehtiyojni yuzaga keltirish muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, o‘quv materiallari ijtimoiy-madaniy mazmunni to‘liq yoritishi, real hayotiy vaziyatlarga mos va amaliy ahamiyat kasb etishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Abulgazinova D.D., Kurmanayeva D.K. The effectiveness of local culture-based materials in foreign language teaching. Pedagogical Science. 2022. № 1 (113). C. 18-25.
2. Абдуллаев А., Инатов А., Таълим жараёнини ривожлантиришда тизимли ёндашувнинг аҳамияти. Замонавий таълим / Современное образование 2014, №9. 9-13-бет.
3. Алимов Ф.Ш. Технологик ёндашув ва психологик омиллар асосида ёзма нутқ компетенциясини шакллантириш. Бердақ номидаги Қорақалпоқ давлат университетининг ахборотномаси. 2017 й. №1 (34). 49-51-б.
4. Гаппиров Б Изучение морального самосознания студентов педагогического вуза. Современные проблемы науки и образования. – 2014. – № 3
5. Abdullayevna, N. Y., & Qizi, S. Q. B. (2024). CREATIVE KOMPETENTSIYALARINI THE ROLE OF INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN FORMATION OF PRIMARY SCHOOL TEACHERS. *Eurasian Journal of Academic Research*, *4*(7S), 706-709.
6. Juraeva, Malokhat Muhammadovna and Khamidova, Muborak Khafizovna (2020) “Linguoculture and linguocultureme” Scientific reports of Bukhara State University: Vol. 3: Iss. 4, Article 6. DOI: 10.52297/2181-1466/2019/3/4/6 Available at: https://uzjournals.edu.uz/buxdu/vol3/iss4/6
7. Shamshidinovna, M. F., & Zayniddinovich, N. S. (2024). MAKTAB VA MAKTABGACHA TA’LIMDA MILLIY TARBIYA VA QADRIYATLAR. *Eurasian Journal of Academic Research*, *4*(7S), 452-454.
8. Makhmudjonovna, A. M., & Fatima, M. (2024). METHODS OF FORMATION OF SPEECH SKILLS IN PRIMARY EDUCATION TEACHERS. *Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies*, *1*(5), 193-199.
9. Makhmudova, F. (2023). MEDIASAVODXONLIK VA UNING AHAMIYATI. *MMIT*, 232-233.
10. Qudratova, S. B., Atenov, J. D., & Normurodov, S. Z. (2025). Boshlang ‘ich ta’limda steam ta’lim texnologiyasi fanining umumiy asoslari, predmeti va vazifalari. *Inter education & global study*, *3*(2), 142-153.
11. Qizi, S. Q. B., & Akramjanovich, K. A. (2024). STEAM texnologiyalari. *Eurasian Journal of Academic Research*, *4*(7S), 494-497.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

12. Qudratova, F. T. (2023). Zamonaviy pedagoglarning innovatsion kasbiy faoliyatini takomillashtirish. *Science and Education*, *4*(8), 234-238.